

UDK: 619:636.5:615:591.111:591.4

**JO'JALAR QONINING MORFOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA
“INTROVIT B KOMPLEKS ORAL” VITAMINLI PREPARATINING
TA'SIRINI O'RGANISH.**

**Eshimov D.
Nuriddinova M.I.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. Tajriba uchun «SP Og‘alik Lomman parranda» tovuqchilik xo‘jaligidan Lomman LCL klassik tuxum beruvchi bir kunlik jo‘jalardan 60 bosh olib kelinib uy sharoitida kichik tovuqxonadagi simli katakchalarga tirik vaznlari oddiy tarozida o‘lchanib 20 boshdan uch guruhga ajratib joylashtirildi (tirik vaznlaridagi farq $\pm 5\text{gr}$). Jumladan, birinchi guruh jo‘jalari tajriba oxirigacha qiyosiy nazorat guruhi bo‘lib xizmat qildi va xo‘jalik ratsioni bilan oziqlantirildi, ikkinchi tajriba guruh jo‘jalarining ichimlik suviga «Introvit B kompleks oral» vitaminli preparatidan 1ml/4 1 suvga qo‘sib har 10 kunda 5 kun davomida tajriba oxirigacha ichirib borildi. Uchinchi tajriba guruhi jo‘jalariga chiktonik vitaminli kompleksdan 1ml/ 11 suv bilan uzlusiz ravishda ichirib borildi. Qo’llanilgan preparatning samaradorligi qonning morfologik ko‘rsatkichlariga qarab baholandi.

Аннотация. Для эксперимента были привезены с птицефабрики «СП Огалик Ломман Парранда» 60 голов классических яйценосных однодневных цыплят Ломман ЛКЛ и помещены в проволочные клетки в небольшом курятнике при разнице $+5\text{гр}$ в домашних условиях. В частности, цыплятам первой группы до конца опыта служила группа сравнительного контроля и их кормили фермерским рационом, а цыплятам второй опытной группы добавляли 1мл/4 л витаминного препарата «Интрорит Б комплекс оральный». в питьевую воду цыплят. В течение 5 дней из 10 ее выпивали до конца опыта. Цыплятам третьей опытной группы непрерывно давали воду из витаминного комплекса «Чиктоник» в количестве 1мл/1л. Эффективность использованного препарата оценивали на основании морфологических показателей крови.

Abstract. For the experiment, 60 heads of Lomman LCL classical egg-laying one-day-old chicks were brought from the "SP Ogalik Lomman Parranda" chicken farm, and placed in wire cages in a small hen house under home conditions. difference $+5\text{gr}$). In particular, the chicks of the first group served as a comparative control group until the end of the experiment and were fed with farm ration, while the chicks of the second experimental group were added 1ml/4 1 of vitamin preparation "Introvit B complex oral" to the drinking water of the chicks. For 5 out of 10 days, it was drunk until the end of the experiment. Chicks of the third experimental group were continuously given 1ml/11 of water from the Chiktonic vitamin complex. The effectiveness of the used drug was evaluated based on the morphological parameters of the blood.

Kalit so‘zlar: qon, eritrosit, leykosit, trombosit, gemoglobin, jo‘ja, introvit B, chiktonik.

Ключевые слова: кровь, эритроциты, лейкоциты, тромбоциты, гемоглобин, цыпленок, интровит Б, чиктоник.

Key words: blood, erythrocyte, leukocyte, platelet, hemoglobin, chick, introvit B, chiktonic.

Kirish (введение). Bugungi kunda dunyoda parrandachilik jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Parrandachilik chorvachilikning muhim tarmog‘i bo‘lib, parranda go‘shti, undan tayyorlanadigan parhez go‘sht mahsulotlari, tuxum, pat va par ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Shu sababli parrandachilik xo‘jaliklari sonini ko‘paytirish, ulardan ratsional foydalanish, tovuqlarning tuxum mahsulorligini oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Parrandalar yuqumsiz kasalliklarining etiologiyasida asosiy o‘rinni modda almashinuvni buzilishi kasalliklari tashkil qilib, ularning nobud bo‘lishida 26% dan ortiq gepatoz kasalligi, 16% avitaminozlar va gipovitaminozlar, 24% hazm tizimi kasalliklari va 9% raxit kasalligi tashkil etgan [7].

Material va metodlar (материалы и методы). Ilmiy tadqiqot ishlari laboratoriya tajribalari Samarqand davlat veterinariya medisinasiga va chorvachilik biotexnologiyalar universitetining hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya kafedralarining ilmiy-amaliy laboratoriyasida bajarildi.

Tajriba uchun «SP Og‘alik Lomman parranda» tovuqchilik xo‘jaligidan Lomman LCL klassik tuxum beruvchi bir kunli jo‘jalardan 60 bosh olib kelinib uy sharoitida kichik tovuqxonadagi simli katakchalarga tirik vaznlari oddiy tarozida o‘lchanib 20 boshdan uch guruhga ajratib joylashtirildi (tirik vaznlaridagi farq $\pm 5\text{gr}$).

Jumladan, birinchi guruh jo‘jalari tajriba oxirigacha qiyosiy nazorat guruhi bo‘lib xizmat qildi va xo‘jalik ratsioni bilan oziqlantirildi, ikkinchi tajriba guruh jo‘jalarining ichimlik suviga «Introvit B kompleks oral» vitaminli preparatidan 1ml/4 l suvga qo‘shib har 10 kunda 5 kun davomida tajriba oxirigacha ichirib borildi. Uchinchi tajriba guruhi jo‘jalariga chiktonik vitaminli kompleksdan 1ml/ 11 suv bilan uzlusiz ravishda ichirib borildi. Qo‘llanilgan preparatning samaradorlik ko‘rsatkichlarini tajriba oxirida jo‘jalarning saqlanuvchanlik foizlariga va tirik vaznining o‘sish ta’siriga qarab baholandi. Qonning morfologik ko‘rsatkichlari tajribaning 10, 20, 30 va 40 kunlari jo‘jalarning qanot osti venasidan qon olinib, 1 mm³ qonidagi eritrotsitlar, leykotsitlar va trombotsitlar soni Goryaev sanoq to‘rida Romanov Gimza va metilvialent buyoqlari bilan bo‘yalib I.A.Bolotnikov, Yu.V.Solovyov (1980) usullarida sanaldi [3; 4; 5].

Qon tarkibidagi gemoglobin miqdori gemoglobinsianid usulida (atsitonsiangidrin bilan) KFK-2 M-da aniqlandi I.P.Kondraxin va boshq. (1985).

Natijalar va ularning tahlili (результаты и обсуждения). Jo‘jalar qonining morfologik ko‘rsatkichlariga Introvit B kompleks oral preparatining ta’sir doiralarini o‘rganish maqsadida qanot osti venasidan qon olinib qondagi eritrotsitlar, gemoglobin miqdori, leykotsitlar va trombotsitlar soniga ta’sir doiralarini o‘rganish uchun tajribaning 10, 20, 30 va 40 kunlari laboratoriya sharoitida tekshiruvlar olib borildi.

Olingen natijalar 1-2-3-4-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

“Introvit B kompleks oral” vitaminli preparatini jo‘jalar qondagi eritrotsitlar($10^{12}/\text{l}$) soniga ta’siri M + m

T/r	Guruuhlar nomi	Preparatlar nomi	Tekshiruv kunlari			
			10	20	30	40
1	Qiyosiy nazorat	Xo‘jalik ratsioni	4,25±0,07	3,61 ± 0,11	3,68 ±0,08	3,75±0,05
2	Tajriba	Introvit B kompleks oral 1 ml/4 l suvga	4,75±1,17	4,84±0.012	3,90 ±0.06	3,98±0,07
3	Tajriba	Chiktonik1ml/l suv bilan	4,60±1,20	3,75 ± 0,06	3,85 ±0,13	3,90±0,15

2-jadval

“Introvit B kompleks oral” vitaminli preparatini jo‘jalar qondagi gemoglobin (g/l) miqdoriga ta’siri M + m

T/r	Guruuhlar nomi	Preparatlar nomi	Tekshiruv kunlari			
			10	20	30	40
1	Qiyosiy nazorat	Xo‘jalik ratsioni	87,3±1,11	97,0±1,12	100,0±0,05	101,5±0,13
2	Tajriba	Introvit B kompleks oral 1 ml/4 l suvga	96,5±0,09	106,0±0,09	110,0±0,06	104,3±0,04
3	Tajriba	Chiktonik1ml/l suv bilan	93,2±1,15	99,5 ±1,2	105,0±0,01	102,2±0,013

3-jadval

“Introvit B kompleks oral” vitaminli preparatini jo‘jalar qondagi leykotsitlar ($10^9/\text{l}$) soniga ta’siri M + m

T/r	Guruuhlar nomi	Preparatlar nomi	Tekshiruv kunlari			
			10	20	30	40
1	Qiyosiy nazorat	Xo‘jalik ratsioni	28,8±1,11	28,3±0,43	29,5±0,50	28,8±1,11
2	Tajriba	Introvit B kompleks oral 1 ml/4 l suvga	28,1±2,30	28,5±1,55	28,8±2,11	28,6±1,56
3	Tajriba	Chiktonik1ml/l suv bilan	28,3±2,77	28,0±2,10	29,4±2,98	28,5±2,85

4-jadval

“Introvit B kompleks oral” vitaminli preparatini jo‘jalar qondagi trombotsitlar ($10^9/\text{l}$) soniga ta’siri M + m

T/r	Guruuhlar nomi	Preparatlar nomi	Tekshiruv kunlari			
			10	20	30	40
1	Qiyosiy nazorat	Xo‘jalik ratsioni	37,5±2,55	36,3±1,07	37,8±2,56	37,5±2,57
2	Tajriba	Introvit B kompleks oral 1 ml/4 l suvga	37,0±2,06	36,8±1,13	37,5±1,15	36,9±1,20
3	Tajriba	Chiktonik1ml/l suv bilan	37,1±2,00	36,6±2,05	38,4±1,5	37,8±1,7

Xulosalar (выводы). Shunday qilib tajriba guruhidagi jo‘jalar ya’ni Introvit B kompleks oral preparatini qo‘llanmasiga asosan olganlarida (ikkinchi guruh) tajriba

oxirigacha qondagi leykotsitlar va trombotsitlar soni qiyosiy nazorat guruhidagi jo‘jalar qon ko‘rsatkichlaridan farq etmadni [1; 2; 6].

Asosiy o‘zgarish tajribaning 10, 20, 30, 40 kunlari eritrositlar soni 11,7%-5,9% larga oshgan, gemoglobin miqdori esa 10,5%-5,7% largacha (2 guruh), uchinchi tajriba guruhidagi jo‘jalar ichimlik suvlari orqali 1 ml/1 1 miqdorlarida berilganda ularning qonidagi eritrositlar soni 8,2%-3,8% larga, gemoglobin miqdori esa 6,8%-2,5% largacha qiyosiy nazorat guruhidagi jo‘jalarning qon ko‘rsatkichlaridan yuqori ekanligi aniqlandi.

Olib borilgan laboratoriya tajriba va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki Introvit B kompleks oral vitaminli preparat jo‘jalar qonining morfologik ko‘rsatkichlariga salbiy ta`sir ko‘rsatmas ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toshmurodov D. S., Eshimov D., Xalilov O. B. Broyler jo‘jalarining ichak mikroflorasiga xitozan gidroksiapatitini ta’siri //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – Т. 2. – №. 7 (44).
2. D. Toshmurodov, S. Aliyarov, D. Yeshimov, D. Ibragimov, Effect of chitozan bombyx mori immunomodulator on the physiological state of chickens European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 10, October 2021, ISSN: 2660-5643 P. 6-9.
3. М.Е. Дмитриева, Ветеринарное благополучие – залог рентабельной работы птицеводческого предприятия / М.Е. Дмитриева // Птица и птицепродукты. –2014. – №1. – С. 23-25.
4. И.А. Рубинский,. Иммунные стимуляторы в ветеринарии / И.А. Рубинский, О.Г. Петрова // Монография. – 2012. – 270 с.
5. Руководство по кормлению сельскохозяйственной птицы / И.А. Егоров, В.А. Манукян, Т.М. Околелова, Т.Н. Ленкова [и др.] // Под общей редакцией В.И. Фисинина и И.А. Егорова. – Сергиев Посад, 2015. – 199 с.
6. М. Г. Петраш. Птицеводство России. История. Основные направления. Перспективы развития / М. Г. Петраш [и др.] – М.: КолосС, 2004. – 297 с.
7. Бессарабов, Б. Ф. Птицеводство и технология производства яиц мяса птиц / Б. Ф. Бессарабов, Э. И. Бондарев, Т. А. Столляр. — СПб. : Лань, 2005. — С. 352. 96